

**QUROLI KUCHLARINING FORMALI UST-BOSHLARIGA QO'YILGAN TALABLAR  
HAMDA ULARNING SIFAT KO'RSATKICHLARI**

**Qurdashov B.S**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasida kiyim-kechak mahsulotlari ikki xil maqsadlarda yangi fuqorolik hamda harbiy maqsadlarda ishlab chiqiladi.*

*Harbiy fo'rmali ust-boshlarni tikish jarayoniga hamda sifat ko'rsatgichlariga bir qancha talablar qo'yiladi. Jumladan, taktik-texnik, gigiyenik, estetik, funksional, psixofiziologik, mustahkamlik, havo o'tkazuvchanlik hamda harbiy formal ust-boshlarning modelini yaratishga qo'yilgan talablar hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *harbiy formal ust-boshlar, kiyim-kechak, taktik-texnik, gigiyenik, estetik, funksional, psixofiziologik, mustahkamlik hamda harbiy formal ust-boshlarni loyhalashtirish.*

**ВОЕННАЯ ФОРМА ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ТРЕБОВАНИЯ  
К КАЧЕСТВЕННОМУ СОСТОЯНИЮ ВЕРХНЕЙ ОДЕЖДЫ**

**Аннотация:** *В Республике Узбекистан швейные изделия разрабатываются для двух различных целей, а также для военных целей. К процессу пошива военных кованых голенищ и показателям качества предъявляется ряд требований. В частности, рассмотрены требования к созданию модели тактико-технической, гигиенической, эстетической, функциональной, психофизиологической, прочностной, воздухопроницаемой, а также ушанки военной формы.*

**Ключевые слова:** *головные уборы военной формы, одежда, тактико-технические, гигиенические, эстетические, функциональные, психофизиологические характеристики, надежность и лояльность головных уборов военной формы..*

**MILITARY UNIFORM OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN REQUIREMENTS FOR THE QUALITY CONDITION OF THE TOPS**

**Annotasia:** *In the Republic of Uzbekistan, clothing products are developed for two different purposes, as well as for military purposes. A number of requirements are imposed on the process of sewing military forged tops and quality indicators. In particular, the requirements for the creation of a model of tactical-technical, hygienic, aesthetic, functional, psychophysiological, robustness, air permeability, as well as military-shaped ust-heads are considered.*

**Keywords:** *military-shaped ust-heads, clothing, tactical-technical, hygienic, aesthetic, functional, psychophysiological, robustness, and military-shaped UST-heads loyalization.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan bugungi kunda harbiy sohada olib borayotgan islohotlari natijasida Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yaroq va harbiy texnikalar hamda moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlandi, miqdor jihatdan uncha katta bo'lmagan, lekin yaxshi shaylangan, zamonaviy qurollar va harbiy texnikalardan samarali foydalana oladigan, o'z xalqiga, ona zaminiga sadoqatli bo'lgan o'z vatanining sha'ni va qadr qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan, yuksak ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashiga ega bo'lgan vatanparvar harbiy xizmatchilardan tarkib topgan Mamlakatimizning strategik va hududiy xususiyatlarini hisoblagan holda professional armiya shakillantirildi.

Qurolli Kuchlarimizning jangavor qudrati ko'plab omillardan tarkib topgan bo'lib ular quydagilar bilan belgilnadi.

- shaxsiy tarkibning miqdori, axloqiy-ruhiy holati, jismoniy tayyorgarligi, professionallik darajasi hamda harbiy xizmatchilarning intizomi bilan,

- zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy texnik vositalar bilan ta'minlanganlik holati va sifati bilan,

- harbiy infrastruktura va harbiy xizmatchilarga yaratilgan qo'lay muhit hamda harbiy o'quv moddiy-texnik bazalarini mavjudligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizning iqtisodiyotining rivojlanishi Davlatimizning mudofaa qobiliyatining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari moddiy ta'minot vositalari bilan ta'minlash, ilmiy tizimda istiqbolli rejalashtirish, ilmiy me'yorlashtirish va moddiy resurslarni markazlashgan tartibda tarqatishga asoslangan. Qo'shinlarning front orti ta'minoti jangovar harakatlarning muvaffaqiyatli olib borishda asosiy rol o'ynaydi. Qo'shilma va harbiy qismlarning jangovar qobiliyati ularning moddiy ta'minot vositalari bilan o'z vaqtida va to'liq ta'minlanganligiga bog'liq.<sup>36</sup> Ushbu tizimda harbiy xizmatchilarni harbiy formal ust-boshlar bilan o'z vaqtida hamda sifatli ta'minlash alohida o'rin tutadi.

**Kiyim-kechak bu**-insoning tanasini tashqi omillar ta'siridan himoya qiluvchi hamda estetik funksiyalarni bajaruvchi matolarning bir biriga birlashtirish orqali hosil bo'lgan matolar yig'indisi hisoblanadi.

Kiyim-kechaklar insoning tashqi qiyofasini o'zgartirishda, insoning turli his-tuyg'ularini uyg'otishda, insonning xarakterini (jiddiylik, vazminlik, jo'shqinlik, sovuqlik, oddiylik va boshqalar) va didini ifodalashda katta rol o'ynaydi.

<sup>36</sup> Oliy harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tay'rlash maktabi kursantlari va kiyim-kechak xizmati kichik mutaxassislari uchun kiyim-kechak ta'aminoti asoslari bo'yicha o'quv qo'llanma A.P. Murodov-2012yil.

Kiymlar o'z zamoniga hamo-hang ravishda odamlarning talabiga qarab sifat holati va turlari o'zgarib boraveradi, har bir zamonning o'ziga hos bo'lgan kiyimlarning turlari mavjud. Hozirgi zamon kiyimlari jamiyatimiz talabiga mos kelishi kerak, ya'ni chiroyli zamonaviy, gigienik va qulay bo'lishi lozim.

Harbiy formal ust-boshlar ham o'z zamonasiga mos ravishda sifat holati, ko'rinishi va unga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib turadi.

Harbiy kiyim-kechaklarning asosiy maqsadi va vazifalari, harbiy xizmatchilarining jangovar va maxsus vazifalarni bajarish vaqtida ularning harakatlanishlari harbiy xizmatchilarning tanasining issiqlik yo'qotmasligini kamaytirishi va tana haroratini doimiy ravishda bir xilda saqlanishi, uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

Kiyimlar harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida hamda hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, Ular harbiy xizmatchilarning tanasini noqulay ob-havo sharoitlardan (sovuqdan, quyosh nuridan, shamol, yomg'ir va qordan) hamda inson tanasini mexanik yaniy insonning tashqi teri qatlamini chang, kir va zararkunandalar chaqishidan asraydi.

Harbiy kiyim-kechaklarga quydagi talablagan javob berishi zarur. Ular quydagilardan iborat.

Gigienik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiena meyorlariga moslikni harakterlab, kiyim ostida qulay mikroiklimni ta'minlashi kerak. Gigienik moslik ko'rsatkichi kiyim ostidagi havo almashinuvi darajasini bildiradi. Masalan, yuqori haroratli tashqi muhitga mo'ljallangan kiyimning gigienik ko'rsatkichlari gazlamaning gigienik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu ko'rsatkich o'z avbatidakiyim paketining havo o'tkazuvchanligiga, bug' o'tkazuvchanligiga hamda kiyimning ratsional konstruktiv yechimiga bog'liq.<sup>37</sup>

Kiyimlarga qo'yiladigan psixofiziologik talablar-bu harbiy kiyimlarni harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga hamda fiziologik xususiyatlariga mosligini aniglatadi. Bu ko'rsatkichlarga kiyim oson kiyilishi va yechilishi, kiyim ayrim elementlarining qulayligi hamda kiyimning massasini kiritish mumkin.

Harbiy kiyimlarning taktik-texnik talablari harbiy xizmatchilarning kiyim-kechaklardan foydalanish sharoitlaridan kelib chiqib, quydagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. kiyimlarning yengilligi, himoyalanganligi, kiyish uchun qulayligi, niqoblash hususiyatlarining mavjudligi, chidamiyligi harbiy kiyim-kechaklarning , taktik-texnik ko'rsatkichlariga misol bo'ladi.

Harbiy kiyimlar fasilga moslashgan holda bo'lishlari, qishda tanani sovuqdan saqlashi, yoz sharoitlarida havoni yaxshi o'tkazishi, to'g'ri nafas olishiga va tanada qon aylanishiga ta'sir ko'rstmasligi hamda gavdaning harakatiga xalaqit bermaydigan,

<sup>37</sup> Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Tikuv buyumlari texnologiyasi" Nabdjanova N.N., Rizametova M.A., Raimberdiyeva D., Ergasheva R -2019 yil.

harbiy xizmatchilarning gavdasini yaxshi saqlashi, muayyan darajada havo o'tkazuvchan, gigroskopik, xushbichim, chiroyli bo'lishlari talab etiladi.

Harbiy kiyim-kechaklar yuqorida ko'rsatilgan talablarga javob bermasligi harbiy xizmatchilarga yuklatilgan vazifalarni bajarilishida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi hamda harbiy xizmatchilarning sog'ligiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi ya'ni teri kasalliklarini, yuqumli kasalliklarni, yurak qon tomir kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Harbiy formal ust-boshlarni tikishda harbiy xizmatchilarning barcha guruhlarini o'lchamlarini, qo'l va ko'krak farqlovchi belgilarini hamda bezaklarini inobatga olgan holda korxonalar tomonidan ishlab chiqarilishi harbiy xizmatchilarga formal ust-boshlarni moslashtirilishiga imkon yaratmaydi hamda harbiy xizmatchilardan ortiqcha sarf xarajat va vaqt sarflashlarini talab etmaydi

Harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan har qanday formal ust-boshlarning loyhalari jamoatchilik tomonidan qo'llab quvvatlanganidan so'ng hayot (harbiy xizmat)ga tadbiq etilishi joiz bunda jamoatchilik fikri muhim ro'l o'ynaydi.

Harbiy formal ust-boshlar, harbiy xizmatchilarda professionallik, harbiy qadriyat, sodiqlik, vatanparvarlik, harbiy burch, sadoqat, fidokorlik, sharaf, jasorat va shaxsiy mukammallik hamda g'urur ramzi sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Harbiy formal ust-boshlar orqali yosh avlodlarini harbiy hayotga qiziqishlarini shakillanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hulosa o'rnida shuni takidlash joyizki harbiy formal ust-bosh (kiyim-kechak) larni ishlab chiqishda quyidagi omillarga asosiy etiborni qaratishlari lozim. yani

Birinchidan,-harbiy formal ust-boshlarning sifat holatga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda tikish uchun kerakli bo'ladigan gazlamalarni to'g'ri tanlanilishi.

Ikkinchidan,-harbiy formal ust-boshlarning davlat standartlariga mos ravishda loyihalashtirish hamda modelini yaratish.

Uchinchidan,-harbiy formal ust-boshlarning andozalarini birlashtirish hamda bezaklarini mos kelishiga katta e'tibor qaratish.

Harbiy formal ust-boshlarning sifat ko'rsatkichlari, mamlakatimiz iqlim sharoiti, harbiy formal ust-boshlarga qo'yilgan talablarni, harbiy formal ust-boshlarning maqsadlarini va vazifalarini inobatga olgan holda hamda mazkur sohada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning keng tajribisini o'rganib, harbiy formal ust-boshlar uchun yagona Davlat standartlarini joriy etish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 3-noyabr kuni O'RQ-800 "Standartlashtirish to'hrisida" Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi «Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-6240-son Farmoni.

3. Oliy harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tayèrlash maktabi kursantlari va kiyim-kechak xizmati kichik mutaxassislari uchun kiyim-kechak ta'minoti asoslari bo'yicha o'quv qo'llanma A.P. Murodov-2012yil.

4. Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Tikuv buyumlari texnologiyasi”  
Nabidjanova N.N., Rizametova M.A., Raimberdiyava  
D., Ergasheva R -2019 yil.